



## KORXONADA MEHNAT UNUMDORLIGINI O'ZGARISHINING KORXONADA SARF-HARAJATLARIGA BOG'LIQLIGI

---

*Razzoqov Xurshidbek Abdusalom o'g'li*  
*Andijon mashinasozlik instituti*  
*“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqola korxonalarda mehnat tashkil etishni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada mehnat tashkil etishning asosiy tushunchalari, amaliyot usullari, shuningdek, korxonalarining o‘z faoliyati bo‘yicha muhim tadbirlar keltirib o‘tiladi. Mehnat tashkil etish jarayonining muhim ahamiyati va uning korxonalarda qanday amalga oshirilishi haqida tushunchalar ta'kidlanadi. Maqola, korxonalarining qanday qilib xodimlarni ilg‘or qilish, ularning motivatsiyasini oshirish va yuqori ish faolligini ta'minlashda mehnat tashkil etishning rolini ko‘rsatadi. Maqolada empirik tadqiqotlar, ilmiy tahlillar va korxonalar boshqaruvchilaridan olingan ma'lumotlar asosida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mehnat tashkil etish, korxonalar, xodimlar, faollik, Ishchi motivatsiyasi, ish tizimi, boshqaruv, rejim, qadam, tadbirlar, muhimlik, ko‘nikma, aniqlovchilik, natijalar, analiz.

**Kirish.** Mehnat faoliyatining maqsadi biror natijaga erishishdan, masalan, maxsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Xar qanday xodim yoki xodimlar guruxi uchun natija samaradorligi, ya’ni vaqt birligi - soat, kun, yil mobaynida ishlab chiqarilgan maxsulot, ko‘rsatilgan xizmat miqdori muxim ahamiyatga ega. Bu natija qanchalik yuqori bo‘lsa, uning birligiga sarflangan xarajat, shu jumladan, xona, bino uchun ijara xaqi elektr quvvatidan foydalanish xaqi va shu kabilar shunchalik kamroq bo‘ladi. Binobarin, mehnat unumdorligi yuqori, maxsulot xajmi ko‘proq bo‘lsa, uning xarajatlari kamroq bo‘ladi. Mehnat samaradorligi maxsulodorigi mehnat ko‘rsatkichi bilan o‘lchanadi.

**Mexnat unumdorligi** - xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan maxsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbatan, ya’ni mehnat xarajatlari birligi xisobiga ishlab chiqarilgan maxsulot bilan belgilanadi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a‘zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning usishiga bog‘liqdir. Bundan tashkari, mehnat unumdorligi



darajasi ishlab chiqarish usulini xam, xatto ijtimoiy - siyosiy to‘zumning o‘zini xam belgilab beradi.

Mexnat unumdorligi ko‘rsatkichi mexnat samaradorligi va natijadorligining barcha jixatlarini aks ettirmaydi. Masalan, u mexnat sifatini xisobga olmaydi, bundan tashkari, mexnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini ifodalamaydi. «Mexnat unumdorligi» tushunchasiga o‘z axamiyati jixatidan yaqin, lekin mazmunan yanada kengroq bo‘lgan tushuncha «mexnat samaradorligi» tushunchasidir. Mexnat samaradorligi eng kam mexnat xarajatlari bilan yuqori mexnat natijadorligiga erishish darajasini ifodalaydi. Mexnat samaradorligi mexnat unumdorligidan farqli o‘laroq, fakat mexnatning miqdor ko‘rsatkichlarini emas, shu bilan birga sifat natijalarini xam ifodalaydi. Mexnat samaradorligi ko‘rsatkichining yana bir muxim ustunligi unda mexnat resurslarini tejashning aks etishidir.

Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mexnat unumdorligini muttasil ravishda oshirib borish uta muxim axamiyatga ega bo‘lib, mexnat unumdorligini oshishi axoli turmush darajasini yaxshilanishiga va ish xaqi miqdorlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mexnat unumdorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, ish sifati zarur darajada bulgani xolda, mexnat xarajatlari qanchalik kam bo‘lsa, mexnat samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Tadbirkor korxonaga egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday mexnat xarajatlari bilan ta‘min etilgani xam muximdir. Mexnat xarajatlari xodimlar soni va mexnatga tulanagan xaq xarajatlari bilan o‘lchanadi. Unisi xam, bunisi xam ish vaqti bilan ulchanishi mumkin. Shuning uchun xam mexnat samaradorligini taxlil kilganda vaqt birligi ichida sarflangan mexnat xarajatlari xam, shu bilan birga uning to‘zilishi xisobga olingan xolda xam karab chiqiladi.

Mexnat unumdorligini xisoblashda quyidagilarni ta‘minlash imkonini beradigan uslubiyot ideal xisoblanishi mumkin:

- korxonaga ishining ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi;
- xodimga ragbatlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatish;
- mexnat unumdorligining umumiy va xususiy ko‘rsatkichlari bir o‘lchov bilan ulchanishi mumkinligi;
- mexnat miqdori bilan sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Xar qanday maxsulot, buyum, xizmatda jonli va buyumlashgan mexnat jamlangan bo‘ladi. Bunday jami mexnat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi.



Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari jonli mexnat moddiylashgan mexnatning tobora ko'proq massasini qamrab oladi. Natijada jami mexnatda moddiylashgan mexnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mexnatning ulushi kamayib boradi. Bu mexnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Ishlab chiqarishning takomillashib borishi va fan-texnika taraqqiyoti mexnat unumdorligi oshishining asosiy shartlaridir. Yangi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi mexnatni mexanizatsiyalash darajasining ortishiga olib keladi. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$M_d = \frac{C_m}{C_y} \cdot 100\%$$

Bu yerda:  $M_d$ - mexnatning mexanizatsiyalash darajasi, %;

$S_m$ - mexanizatsiyalashgan mexnat xodimlari soni;

$S_u$ - xodimlarning umumiy o'rtacha ro'yxatdagi soni .

Mexanizatsiyalashgan mexnat xodimlari jumlasiga o'z ishini mashinalar va mexanizmlar yordamida bajaradigan kishilar kiritiladi.

Mexnatni mexanizatsiyalash (avtomatlashtirish) darajasining ortishi moddiylashgan mexnat ulushining oshganligi va jonli mexnat sarflashni ko'paytirmasdan turib, mexnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Mexnat unumdorligining asosi bulgan mexnatning unumdorlik kuchi mexnat unumdorligining aynan o'zi emas: xaqiqiy mexnat unumdorligi yana ikkita muxim omilga - jonli mexnatning eng muxim ko'rsatkichi bulgan mexnat intensivligiga (jadalligiga) va ish vaqtining nominal fondidan foydalanishga xam bog'liq.

Mexnat jadalligi (intensivligi) - bu, jonli mexnatning jiddiyliyi yoki murakkabligi darajasi bo'lib, ish vaqti birligi ichida inson asab va muskul quvvatining sarflanishi bilan o'lchanadi. Bunda inson organizmiga salbiy ta'sir kursatmaydigan jadallik ijtimoiy normal jadallik xisoblanadi, sarflangan quvvat ovqatlanish, dam olish va xissiy yengillanish xisobiga to'liqtiklanadi.

Xisobga ko'ra, mexnatning normal jadalligi darajasi tekis yuzada soatiga 4,8 km tezlik bilan ketayotgan kishining kuch-quvvat sarflashiga tengdir. Nisbatan normal muayyan mexnat jadalligini oshirish mexnatga xaq to'lashda tegishli darajada xisobga olishni talab qiladi.



Mexnat unumdorligi mexnat jadalligi bilan bir qatorda ish vaqti fondidan foydalanish darajasi bilan xam bog'liqdir.

Ish vaqtidan foydalanish ishlangan vaqtning, shu jumladan, ichki smena dam olishiga ajratilgan, tartibga solingan tanaffus vaqtining mazkur ishlar turi uchun belgilangan nominal vaqt fondiga (ish kunining ish xaftasi, oyi va yilning soat xisobidagi miqdoriga) nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarning indeks alokasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I_{my} = I_{myk} I_{mu} I_{ue\phi}$$

Bu yerda:  $I_{my} = I_{myk} I_{mu} I_{ue\phi}$  - mexnat unumdorligiga muvofik ravishda mexnat unumdorligi kuchi, mexnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indeksleri.

Agar texnika, texnologiya darajasi smena mobaynida 200 birlik maxsulot ishlab chiqarish imkonini bergan bo'lib, mexnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indeksleri tegishli ravishda 0,95 va 0,9 dan iborat bo'lsa, u xolda xaqiqiy mexnat unumdorligi 200 emas, 171 birlikni (200. 0,95.0,9) tashkil etadi.

«Unumdorlik» tushunchasi maxsulotni xar qanday xarajatlarning turiga yoki barcha turlariga nisbatini aniq ko'rsatkichlarda ifodalash uchun qo'llaniladi. Statistik ma'noda unumdorlik deyilganda, ishlab chiqarish natijalarining foydalanish omillari sarflariga nisbati tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, u xarajat birligi to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan maxsulot xajmidir. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish natijasini uning barcha o'lchash mumkin bo'lgan omillari majmuyiga nisbatan yoki aloxida gurux omillarga nisbatan xisoblash mumkin.

Shunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) sarflangan ishlab chiqarish omillarining miqdori va sifati (sarf samarasi); 2) sarflangan omillar miqdorlarining foydalanilishi darajasi (foydalanish samarasi); 3) ishlab chiqarish omillari kombinatsiyalarining miqdori (substitutsiya samarasi); 4) texnika taraqqiyoti (texnika samarasi); 5) ishlab chiqarish jarayoni tashkil kilinishi (daraja samarasi); 6) aloxida jarayonlar sektorlarning yoki xarajatlari yoxud maxsulotning umumiy miqdorida ishtirok etishi (tarkib samarasi); 7) aloxida sektorlar va jarayonlar orasidagi o'zaro aloqalar darajasi va tarkibi (o'zaro aloqadorlik samarasi).

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda korxonalarda mehnat unumdorligini rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan maqsadlarni belgilash tizimi va xodimlarning harakatlari o'rtasida keskin qarama-qarshilik mavjud. Menejerlarning harakatlari ko'pincha xodimlarning mehnatini rag'batlantirishning minimal xarajati bilan istalgan natijaga erishishga



qaratilgan va xodimlarning himoya harakatlari ularning daromad darajasini oshirish istagi bilan belgilanadi. Kurash usullarini tahlil qilish va tizimlashtirish shuni ko'rsatdiki, bu masaladaha ikki tomon tomonidan katta tajriba to'plangan, shuning uchun dastlabki mantiqiy taxminlarni o'zgartirmasdan turib, bu masalada jiddiy taraqqiyotni kutish qiyin. Shunga ko'ra, bir tomonning manfaatlariga tajovuz qilish orqali bir tomonning maqsadiga erishish nuqtai nazaridan fikrlashning dastlabki paradigmasini o'zgartirish va o'zaro manfaatli echimlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimidan foydalanish juda muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krasnoshchekova E. A. Ish sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish Rossiya korxonalari: holati va takomillashtirish yo'nalishlari: t.f.n. / E. A. Krasnoshchekova; Sarat. Davlat texnologiya. Un-t im. Yu.A.Gagarin. – Saratov: [SSTU nashriyoti], 2012. –23 p.
2. Kuznetsova A.V. Mehnatni muhofaza qilish: [amaliyot. Nafaqa] / A. V. Kuznetsova, M. V. Bespalov. –Moskva: GrossMedia: Rossiya hisobchisi, 2012. –126 p.
3. Kulagin O. 5D-matritsalar usuli: biz menejerlar va xodimlarning funktsiyalarini aniqlaymiz / O. Kulagin // Xodimlarni boshqarish bo'yicha qo'llanma. –2014. –No 1. –S. 50-56.
4. Kurmyshev I. N. Axborot assimetriyasi va mehnat bozori: muallif. / I. N. Kurmyshev; Sankt-Peterburg. Davlat un-t. -Sankt-Peterburg: [b. va.], 2012. – 21 b.
5. Lukashevich VV Xodimlarni boshqarish asoslari: darslik. Nafaqa / VV Lukashevich. –3-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. Va qo'shimcha –Moskva: KnoRus, 2012. –270 p.
6. Lukashevich VV Xodimlarni boshqarish asoslari [Elektron resurs] / VV Lukashevich. –Moskva: KNORUS, 2012. –272 p. –Kirish rejimi: <http://ibooks.ru>, USUE tarmog'ida mavjud.
7. Lukyanova T.V. Kasbiy faoliyat psixofiziologiyasi va xodimlarning mehnat xavfsizligi: o'rganish.-amaliyot. Nafaqa / T. V. Lukyanova, T. V. Suvalova, S. I. Yartseva. –Moskva: